

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### SOLIQ TIZIMIDA FISKAL SIYOSATI VA UNI REJALASHTIRISH HOLATI

*Tursunov Ozodbek Badalovich*  
*FarDU sirtqi bo'lim o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'rta muddatli fiskal siyosatning mazmuni va uni joriy qilishning ob'yektiv zarurligi asoslangan. O'zbekistonda o'rta muddatli byudjet daromad va xarajatlarini prognozlashtirishning tashkiliy iqtisodiy asoslari tahlil qilingan.

**Kalit so'z:** O'rta muddatli fiskal siyosat, prognoz, rejalashtirish, byudjetni operativ boshqarish, unumdorlik printsiplari, byudjetlashtirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashga oid tub islohotlarning o'tkazilishi davlatning iqtisodiy siyosatining samarali ijrosini ta'minlashni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday eng muhim dastaklardan biri davlatning izchilolib borilayotgan moliyaviy siyosatidir. Moliyaviy siyosat qo'yilgan maqsadlarini hayotga tatbiq etish uchun, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi. Moliyaviy siyosat haqida so'z yuritish ekanimiz, uning nihoyatda ko'p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi kunga qadar moliyaviy siyosat tushunchasi borasida yagona fikr mavjud emas. Masalan, G'arb iqtisodchilari Stenli Fisher, Rudiger Dornbush va Richard Shmalenzilar moliyaviy siyosat tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondashdilar. «Fiskal siyosati esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi», — deb ta'kidlashadi. Amerikalik mashhur olimlar K.R. Makkonnell va S.L. Bryular taklifga yo'naltirilgan fiskal siyosatni qo'llab-quvvatlaydilar. Fiskal siyosat esa jami talabga va soliqlarni o'zgartirish orqali esa taklifga ham ta'sir ko'rsatadi. Byudjetdan transfert to'lovlari va soliq tizimi, bu olimlar fikricha, turli iqtisodiy vaziyatlarda talab qilingan muvozanatni ta'minlashi mumkin.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish xisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari katori fiskal siyosat orqali xam erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjet-solik siyosati deb ham aytiladi. Byudjet-solik siyosati deganda noinflyatsion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'lik bandlikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi. Iqtisodiyot turgunlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan ragbatlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya'ni, davlat qisqa muddatda iqtisodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliklarni kamaytirish, yoxud ikkalasini bir vaktning o'zida olib borish evaziga xal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yukori bo'lishi va soliklarni kamaytirish ishlab chikarish omillarining o'sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul xolatga olib kelish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiyotda to'lik bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chikishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliklarni (T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaktida olib borish orkali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yukori soliklar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu

esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chikaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo`shimcha turtki bo`lishi mumkin. Iqtisodchilar M.Sharifxo`jaev va A.O`lmasovlar fikricha fiskal siyosat bu davlat byudjetini to`ldirish maqsadida o`tkaziladigan chora-tadbirlar yig`indisidir. Byudjet kodeksida keltirilishicha byudjet tizimi bir necha prinsiplarga asoslanadi va ulardan biri byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarni rejalashtirish prinsipi bolib, bunda byujet tizimi yu etla ini tuzishda byujet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo`yicha prognoz qiladi. Byudjet daromadlarini rejalashtirish byudjet tasnifiga muvofiq amalga osjiriladi. . Byujet Kodeksining 3bobida Byujet tasnifiga quyidagicha ta`rif berilgan: “Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo`lib , byujet tizimi byujetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi”. Fiskal siyosatni amalga oshirish natijasida daromad va xarajatlarni mutanosibligini ta`minlashga erishilish ko`zda tutilgan ekan, shuni masalani to`g`ri yo`lga qo`yish maqsadida byudjetni daromadlarini to`g`ri rejalashtirish maqsad qilib qo`yilgan. Shu munosabat bilan qabul qilingan Byudjet Kodeksida davlat byudjeti daromadlari umumiy tarza berilgan bo`lsada, Respublika va mahalliy byudjet daromadlari, jumladan viloyat, shahar va tuman byudjet daromadlari ham alohida alohida, manbalari ko`rsatilgan holda berilgan. Avvalgi “Byudjet tizimi to`g`risidagi qonun” esa daromadlar umumiy qilib berilgan edi. Xuddi shunday byudjet xarajatlari ham ushbu kodeksda har bir byudjet bo`yicha alohida keltirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Badalovich, t. o. (2023). o ‘Zbekistonda «Yashil Iqtisodiyot» Ni Rivojlantirish Asosida Barqaror Iqtisodiy o ‘Sishni Ta`Minlash Yo ‘Llari. Samarali Ta`Lim Va Barqaror Innovatsiyalar, 1(5), 43-48.
2. Badalovich, t. o. (2023). o'Zbekistonda Transport-Logistika Xizmatlarini Rivojlantirish Va Logistika Xizmatlari Sifatini Boshqarish Jarayonlarini Iqtisodiy Baholash. Ta'Limning Zamonaviy Transformatsiyasi, 1(2), 832-838.
3. Badalovich, t. o. (2023). Transport Xizmatlari Korxonlari Faoliyatini Raqobatdoshligi Va Risklarni Boshqarish Jarayoniga Omillar Ta'Sirini Baxolash. Ta'Limning Zamonaviy Transformatsiyasi, 1(2), 843-846.
4. Tursunov, o. b. (2023). o'Zbekistonda Transport Xizmatlari Faoliyati Tahlili Va Xizmatlar Bozoridagi Tendensiyalar o'Zgarishi. Sustainability Of Education, Socio-Economic Science Theory, 1(12), 77-84.
5. Maxsudov, s., Tursunov, o., Baltabayeva, m., Akhmadaliyeva, m., & Rakhimova, k. (2023). Influence Of The Innovative Environment On The Activation Of Enterprises In Free Economic Zones. In Bio Web Of Conferences (Vol. 65, P. 09004). Edp Sciences.
6. Badalovich, t. o. (2023). Iqtisodiyotni Modernizatsiyalash Sharoitida Transport Infratuzilmasi Rivojlantirish Va Transport Xizmatlarining Boshqaruv Samaradorligini Oshirish Mexanizmini Takomillashtirish. Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnalni, 3(5), 178-184.
7. Турсунов, о. (2023). Роль и Значение Лизинга в Повышении Эффективности Инвестиционной Деятельности. Ethiopian International Journal Of Multidisciplinary Research, 10(09), 286-289.